

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenė – professor, (Vitautes Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 169-sahifa.
2026-yil, iyul.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MATRASULOVA FERUZA BAXODIROVNA

Sho'rlangan marginal yerlarda sholi yetishtirishning iqtisodiy va agroekologik jihatlari (Xorazm viloyati misolida).....9

KOZIMJONOV ABRORBEK

Suv ta'minot va hudud gaz ta'minot korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq daromad va xarajatlarni tan olish masalalari.....16

KALIMULLINA NARGIZA VLADIMIROVNA

Sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish.....24

RAXMATULLAYEV JALOLIDDIN MUXIDDINOVICH

Davlat xaridlarini samarali tashkil etish orqali byudjet mablag'larini tejash yo'llari.....30

ISMAYLOV SIROJIDDIN ISOQOVICH

O'zbekistonda yuridik shaxslar tomonidan foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.....42

TURGUNOV ABDULLOH QUDRATBEK O'G'LI

Korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholashda foyda va rentabellik ko'rsatkichlari.....49

ABDUBOQIYEV MUXAMMAD SHAROFITDINOVICH

Efficiency indicators of financial management mechanisms in joint-stock companies.....55

ZOHIDOV JAMSHID BOTIRXONOVICH

Xizmat ko'rsatish korxona menejmentida axborot texnologiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....63

ACHILOVA FIRUZA KURBANOVNA, PARDAYEV ORIFJON

CHARSHAMIYEVICH

Qashqadaryo viloyatida raqamli infratuzilma va sanoat ishlab chiqarishning hozirgi holati tahlili.....71

UMAROVA ROXILAXON XALILJON QIZI

Mahalla tizimida madaniy loyihalarni boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....80

ATABAYEVA KAROMAT RAJABOVNA

Demografik jarayonlarni o'rganishning nazariy asoslari.....88

URALOV FARRUH ABDURAZZOQOVICH

Hududiy klaster siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari.....95

G'IYOSOV ILXOM KARIMOVICH

Korporativ boshqaruv mexanizmlarining qurilish korxonalarida strategik qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'siri.....109

ANVAROVA LOBARXON SHERZOD QIZI

Sun'iy intellekt asosida strategik va operatsion boshqaruvni optimallashtirish mexanizmlari.....119





SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH

Valyuta kursi barqarorligini ta'minlashda monetar siyosat vositalarining roli va uning mehnat bozori dinamikasiga ta'siri.....131

KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH

Qurilish sanoati korxonalarida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini boshqarishning nazariy asoslarini takomillashtirish.....140

ERKAYEV AKROM NORMUXAMMADOVICH

Milliy iqtisodiyotni sanoatlashuvning nazariy evolyutsiyasi.....150

AXMEDOVA NILUFAR SHUHRATOVNA, RISBEKOVA DILFUZAXON

JALOLIDIN QIZI

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda hududiy jihatlari hamda davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari.....163

SHARIPOV G'ULOMJON QARSHI O'G'LI

Yashil iqtisodiyot sharoitida hududiy boshqaruvning xorijiy tajribasi va O'zbekistonda qo'llash istiqbollari.....169





YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDIY BOSHQARUVNING XORIJIY TAJIRIBASI VA O'ZBEKISTONDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI

SHARIPOV G'ULOMJON QARSHI O'G'LI

Qarshi davlat texnika universiteti Neft-gaz va geologiya
fakulteti dekan o'rinbosari, i.f.f.d. (PhD)

E-mail: gulom_5333@icloud.com

<https://orcid.org/0009-0032-4559-2014>

Annotatsiya. Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida hududiy boshqaruvni tashkil etishning xorijiy tajribasi qiyosiy tahlil qilinadi hamda ushbu tajribalarni O'zbekiston sharoitida qo'llash istiqbollari baholanadi. Tadqiqotda Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya, Yaponiya va Xitoyning yashil rivojlanish siyosati, hududiy boshqaruv mexanizmlari hamda institutsional yondashuvlari o'rganilgan. Shuningdek, yashil investitsiyalarni rag'batlantirish, ekologik boshqaruvni takomillashtirish, raqamli boshqaruv vositalarini joriy etish va hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda hududiy boshqaruv samaradorligini oshirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga keng joriy etishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, hududiy boshqaruv, xorijiy tajriba, qiyosiy tahlil, institutsional islohotlar, yashil investitsiyalar, barqaror rivojlanish, ekologik siyosat, raqamli boshqaruv, O'zbekiston.

Аннотация. В статье проведён сравнительный анализ зарубежного опыта регионального управления в условиях зелёной экономики и оценены перспективы его применения в Узбекистане. Исследованы политика зелёного развития, механизмы регионального управления и институциональные подходы, реализуемые в странах Европейского союза, Южной Кореи, Японии и Китае. Предложены практические рекомендации по стимулированию зелёных инвестиций, совершенствованию экологического управления, внедрению цифровых инструментов управления и обеспечению устойчивого регионального развития. Результаты исследования направлены на повышение эффективности регионального управления, обеспечение экологической устойчивости и расширение внедрения принципов зелёной экономики в Узбекистане.

Ключевые слова: зелёная экономика, региональное управление, зарубежный опыт, сравнительный анализ, институциональные реформы, зелёные инвестиции, устойчивое развитие, экологическая политика, цифровое управление, Узбекистан.

Annotation. This article presents a comparative analysis of international experience in regional governance under the green economy framework and evaluates the prospects for its application in Uzbekistan. The study examines the green development policies, regional governance mechanisms, and institutional approaches implemented in the European Union, South Korea, Japan, and China. In addition, practical recommendations are proposed to promote green investments, improve environmental governance, introduce digital management tools, and ensure sustainable regional development. The findings contribute to enhancing the efficiency of regional governance, strengthening environmental sustainability, and expanding the implementation of green economy principles in Uzbekistan.

Keywords: green economy, regional governance, international experience, comparative analysis, institutional reforms, green investment, sustainable development, environmental policy, digital governance, Uzbekistan.

KIRISH

Bugungi kunda global iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va barqaror iqtisodiy rivojlanishga





erishish dunyo mamlakatlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonlarda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlik bilan uyg'unlashtiruvchi zamonaviy rivojlanish modeli sifatida e'tirof etilmoqda. Natijada ko'plab davlatlarda yashil iqtisodiyot tamoyillarini davlat va hududiy boshqaruv tizimiga integratsiya qilish, resurslardan samarali foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish hamda karbonat chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan institutsional islohotlar jadallashmoqda. Hududiy boshqaruv yashil iqtisodiyot siyosatini amaliyotga tatbiq etishda muhim bo'g'in hisoblanadi. Aynan hududlar darajasida ekologik muammolarni bartaraf etish, yashil infratuzilmani rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish hamda aholi turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Shu sababli rivojlangan davlatlar, jumladan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Janubiy Koreya, Yaponiya va Xitoy yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida hududiy boshqaruvning innovatsion modellari va institutsional mexanizmlarini shakllantirib, ularning samaradorligini amaliyotda namoyon etmoqda. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda ekologik barqaror rivojlanishni ta'minlash, yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish, energiya samaradorligini oshirish va hududlarni kompleks rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, yashil moliyalashtirishni rivojlantirish, ekologik boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlariga aylangan. Biroq hududiy boshqaruv organlarida yashil iqtisodiyot tamoyillarini kompleks joriy etish, xorijiy ilg'or tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi yashil iqtisodiyot sharoitida hududiy boshqaruvning xorijiy tajribasini qiyosiy tahlil qilish, rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilayotgan samarali institutsional mexanizmlarni aniqlash hamda ularni O'zbekiston hududiy boshqaruv tizimida qo'llash istiqbollari va amaliy takliflarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, taqqoslash, umumlashtirish va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda hududiy boshqaruvning ekologik va iqtisodiy samaradorligini oshirish, yashil investitsiyalarni rag'batlantirish, raqamli boshqaruv vositalarini keng joriy etish hamda hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisodiy o'sish, ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni uyg'unlashtiruvchi rivojlanish modeli sifatida xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng yoritilmoqda. Mazkur konsepsiyaning asosiy maqsadi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, issiqxona gazlari emissiyasini





kamaytirish, yashil investitsiyalarni kengaytirish hamda davlat boshqaruvi tizimini ekologik tamoyillar asosida takomillashtirishdan iborat. Shu sababli hududiy boshqaruv tizimida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish masalalari zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishiga aylangan [1]. UNEP ekspertlari yashil iqtisodiyotni inson farovonligini oshiruvchi, ijtimoiy tenglikni ta'minlovchi hamda ekologik xavflarni kamaytiruvchi iqtisodiy model sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, yashil transformatsiyaning muvaffaqiyati davlat boshqaruvi institutlari, ekologik siyosat, moliyaviy mexanizmlar va hududiy boshqaruv tizimining o'zaro integratsiyalashuviga bevosita bog'liqdir [2]. OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Sharqiy Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyo mamlakatlarida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni institutsional islohotlar, davlat siyosati va hududiy rivojlanish strategiyalari bilan uzviy bog'liqligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyotga o'tishda markaziy va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasidagi samarali koordinatsiya hamda ekologik ko'rsatkichlarga asoslangan strategik rejalashtirish muhim omil ekanligini ko'rsatadi [3]. OECDning O'zbekiston bo'yicha tayyorlagan maxsus hisobotida mamlakatning yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, yashil moliyalashtirish instrumentlarini kengaytirish hamda hududlarda iqlimga moslashuvchan boshqaruv tizimini shakllantirish zarurligi ta'kidlangan. Hisobotda davlat boshqaruvida idoralararo hamkorlikni kuchaytirish va hududiy darajada ekologik siyosatni muvofiqlashtirish bo'yicha qator tavsiyalar berilgan [4]. Shuningdek, OECD ekspertlari O'zbekistonda yashil obligatsiyalar bozorini rivojlantirish, xususiy kapitalni ekologik loyihalarga yo'naltirish va hududiy infratuzilmani moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish yashil transformatsiyaning muhim sharti ekanligini qayd etadilar. Ayniqsa, yashil moliya instrumentlarini hududiy rivojlanish dasturlari bilan integratsiyalash iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslangan [5]. UNECE tomonidan 2026-yilda e'lon qilingan O'zbekistonning Atrof-muhit samaradorligini baholash bo'yicha to'rtinchi hisobotida mamlakatda 2018–2025-yillar davomida ekologik boshqaruv tizimi sezilarli darajada takomillashgani qayd etilgan. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish, tabiatga asoslangan yechimlarni hududiy rejalashtirishga integratsiya qilish va mahalliy boshqaruv organlarining institutsional salohiyatini mustahkamlash dolzarb vazifa sifatida baholangan [6]. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda yashil iqtisodiyotning hududiy rivojlanish bilan o'zaro bog'liqligi bo'yicha ko'plab empirik tadqiqotlar mavjud. Ularning aksariyatida yashil innovatsiyalar, raqamli boshqaruv, ekologik soliqlar, "yashil" byudjetlashtirish va barqaror investitsiyalar hududlar raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy omillar sifatida e'tirof etiladi [7]. O'zbekiston olimlari tomonidan ham yashil iqtisodiyotning iqtisodiy va institutsional jihatlari bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Tadqiqotlarda yashil energetika, resurslardan samarali foydalanish, ekologik investitsiyalar va hududiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilingan. Biroq xorijiy davlatlarning hududiy boshqaruv modellarini qiyosiy tahlil qilish hamda ularni O'zbekiston





hududiy boshqaruv tizimiga moslashtirish masalalari yetarlicha o'rganilmagan[8]. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot bo'yicha mavjud tadqiqotlarning asosiy qismi ekologik siyosat yoki moliyaviy mexanizmlarga bag'ishlangan. Hududiy boshqaruvning institutsional modeli, mahalliy hokimiyat vakolatlari, raqamli boshqaruv texnologiyalari hamda yashil investitsiyalarni boshqarish mexanizmlarini kompleks tarzda o'rganuvchi ilmiy ishlar nisbatan kam uchraydi [9]. Shu bois mazkur tadqiqotda Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya, Yaponiya va Xitoy tajribasi qiyosiy tahlil qilinib, ularning samarali institutsional mexanizmlarini O'zbekiston hududiy boshqaruv tizimida qo'llash imkoniyatlari ilmiy asosda baholanadi. Mazkur yondashuv tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini belgilaydi [10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda yashil iqtisodiyot sharoitida hududiy boshqaruvning xorijiy tajribasini o'rganish va uni O'zbekiston sharoitida qo'llash istiqbollari baholashga qaratilgan kompleks ilmiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish va hududiy boshqaruv sohasidagi zamonaviy ilmiy qarashlar hamda xalqaro tashkilotlar (OECD, UNEP, UNECE, Jahon banki va BMT) hisobotlari tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil usuli orqali Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya, Yaponiya va Xitoyning hududiy boshqaruv amaliyoti O'zbekiston tajribasi bilan taqqoslandi. Tizimli yondashuv yordamida hududiy boshqaruvning institutsional mexanizmlari, yashil investitsiyalarni rag'batlantirish, ekologik boshqaruv va barqaror rivojlanish omillari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Shuningdek, statistik tahlil, umumlashtirish, mantiqiy tahlil va ekspert baholash usullaridan foydalanilib, tadqiqot natijalarining ishonchliligi ta'minlandi. Tahlil uchun O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hamda OECD, UNEP, UNECE va Jahon bankining 2022–2026-yillarga oid rasmiy statistik ma'lumotlari va analitik hisobotlaridan foydalanildi. Olingan natijalar asosida O'zbekistonda yashil iqtisodiyot sharoitida hududiy boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha institutsional va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotni ekologiyalashtirish, mamlakat xo'jaligini yashil iqtisodiyot asosida rivojlantirish iqtisodiyotning zamonaviy modeli sifatida uncha ko'p bo'lmagan davrda paydo bo'lgan bo'lsa-da, qisqa muddat ichida jahon iqtisodiyotining amaldagi modellariga nibatan global ekologik va iqtisodiy inqirozlar davrida ustunlikka egaligini ko'rsatmoqda. Hozirda iqtisodiy rivojlangan davlatlarda buning natijasini ilmiy-tadqiqot ishlarida va amaliyotda ko'rishayotganligi bois, iqtisodiyot va uning turli tarmoqlarida, mamlakatning turli mintaqalarida keng ko'lam-larda joriy qilishmoqda. Energosamarali va tabiiy infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalar allaqachon o'z samarasini bera boshladi. Yashil iqtisodiyot – iqtisodiy fanlar tizimidagi so'nggi 20-30 yil





ichida paydo bo'lgan yangi yo'nalish bo'lib, uning mazmuni iqtisodiyotni tabiatning bir komponenti sifatida unga bog'liq holda mavjudligini izohlaydi. Yashil iqtisodiyot nazariyasi uchta aksiomaga asoslanadi, ya'ni cheklangan tabiiy makonda ta'sir doirasini cheksiz kengaytirish imkonsizligi, resurslar cheklangan sharoitda cheksiz o'sib borayotgan istaklarni qondirish mumkin emasligi, Yer yuzasidagi barcha narsalar o'zaro bog'langanligi. Doimiy iqtisodiy o'sishga erishib borish imkonsiz, doimiy iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin. Ayrim iqtisodchilar hozirda ustunlikka ega iqtisodiy tizimlar har jabhaga javob bera oladigan darajada mukammal emasligini ta'kidlashmoqda. Bu tizimlar ayrim guruh mamlakatlar va ayrim qatlam aholining iqtisodiy va ijtimoiy farovonligini oshirishga sabab bo'layotgan bo'lsa-da, biroq uning atrof-muhit va tabiatga yetka-zayotgan zarari bu foydadan ancha ustunligi ko'rinib qolmoqda. Ayniqsa, buning oqibatida yuzaga kelayotgan hududlardagi keng qamrovli kambag'allik, tabiiy kapitalning isrof qilinishi, ichimlik suvi, oziq-ovqat va energiya-yani yetishmasligi, insonlar va mamlakatlar o'rtasidagi tengsizlik, yirik ekologik muammolar shular jumlasidan. Ushbu muammolarni bartaraf qilish va insoniyatni taraqqiy ettirish uchun yashil iqtisodiyotga o'tish talab etiladi. Turli mintaqalarda turli mamlakatlar yashil iqtisodiyotga har xil masshtabda va yo'nalishlarda o'ta boshlashgan. Ularning bu boradagi tajribasini o'rgangan holda, bu yo'nalishdagi ijobiy tendensiyalarni aniqlashtirish, yashil iqtisodiyotga o'tishning salbiy oqibatlarini tahlil qilish, natijalarni solishtirib, mamlakatlarning tajribasining O'zbekistonga mos jihatlarni tadqiq etish ushbu tadqiqotning maqsadi sanaladi. Yashil iqtisodiyot BMTning atrof-muhit bo'yicha Dasturi (UNEP)ning g'oyasi sifatida 2008-yilda qabul qilingan. Jahon xo'jaligini ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatdan o'sishning barqaror modeli sifatida yashil iqtisodiyotga qayta yo'naltirish uchun amalga oshiriladigan tarkibiy islohotlar bilan uyg'unlashtirish lozim. Ekspertlar yashil iqtisodiyotni joriy qilish orqali YIM o'sishi va iqtisodiy taraqqiyotga erishish bilan bog'liq islohotlarni quyi-dagi to'rtta yo'nalishda amalga oshirishni tavsiya qilishadi.

Birinchidan, yashil iqtisodiyotga o'tish tabiiy va inson kapitali iste'mol resurslarini oshirishga qodir, ya'ni tabiiy kapitalni samarali boshqarish va inson salohiyati oshishi evaziga tabiiy atrof-muhitning holati yaxshilani-shi, buning oqibatida tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi ortadi.

Ikkinchidan, bu o'zgarishlar ijobiy tarkibiy o'zgarishlar bilan bir qatorda tarkibiy, bazaviy tarmoqlarda, jumladan, energetika, qurilish, qishloq xo'jaligi, maishiy soha va boshqalarda katta miqdordagi investitsiyani talab qiladi, oqibatda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida samaradorlikning ortishiga olib keladi.

Uchinchidan, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omili sifatida mustaqil ravishda investitsiyalar ajratiladi, asosan, suv ta'minoti tizimi, kanalizasiya tarmoqlari, jamoat transporti kabi muqobil energiya talab qiluvchi tarmoqlarga yo'naltiriladi.





To'rtinchidan, yashil iqtisodiyotga o'tish innovatsion faoliyatni rag'batlantiradi, buning oqibatida raqobat muhiti kuchayadi, innovatsion samara ortadi.

Yashil iqtisodiyotni ustuvor yo'nalish sifatida joriy qilgan ayrim davlatlar tajribasini tahlil qilamiz. Yashil iqtisodiyotni joriy qilib, undan samarali foydalanayotgan, bu sohada yetakchilar davlatlardan biri Janubiy Koreya sanaladi. Ushbu mamlakatda 2011-yildan boshlab har yili YIMning 3 foizi, ya'ni 60 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi mablag' yashil sektorni rivojlantirishga yo'naltirilmoqda. O'tgan davr mobaynida ushbu sek-torda 1,8 mln yangi ish o'rni yaratilgan. Yashil iqtisodiyotni milliy strategiya sifatida qabul qilgan Janubiy Koreya asosiy e'tiborni sanoatga, energetikaga, investitsiyaga, transportning yashil turlariga, ichimlik suvining muqobil manbaalariga, chiqindilarni qayta ishlashga, istirohat bog'larini rivojlantirishga, shaharlardagi daryolarning tozaligiga qaratmoqda. Vazirliklar amalga oshirayotgan turli dasturlar budget xarajatlarini ortiqcha sarflamaslik maqsadida yagona paketga birlashtirilgan. 2011-yildan boshlab Janubiy Koreyada "yashil" tovarlar va xizmatlar iste'molini rag'batlantirish maqsadida "yashil" to'lov kartalari joriy qilingan. AQShda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi sifatida muqobil energetikani samarali tashkil etishdan boshlangan. Mazkur maqsadda davlat dasturi qabul qilingan bo'lib, 2030-yilda mamlakat bo'ylab ishlab chiqarilayotgan energiya ning 65 foizi quyosh panellari yordamida yaratishga erishish rejalashtirilgan. 2014-yildan boshlab har bir shtatda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o'z hududiy dasturlari qabul qilingan. 2016-yildan keyingi 10 yil uchun ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish hamda ekologik vaziyatni yaxshilashga mo'ljallangan dastur asosida investitsiyalar ajratilmoqda. Mazkur dastur asosida 10 mln yangi ish o'rni yaratish rejalashtirilgan. Yevropa Ittifoqining barcha a'zo davlatlarida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga mo'ljallangan dasurlar qabul qilingan. Energetika, jamoat transporti va infratuzilma, qurilish, chiqindilarni utilizatsiya qilish yo'nalishlarida dastabki yo'nalishlar sifatida tanlangan va hozirga qadar ancha hajmdagi ishlar amalga oshirilgan. 2019-yil dekabrda Yevropa Itifoqida "Yevropa yashil yo'li" dasturi qabul qilindi. Unga asosan 2050-yilga mintaqada uglerod neytralligiga erishish, 2030-yilga qadar issiqxona gazlarini 1990-yildagiga nisbatan 55 foizga kamaytirish, ekologik toza texnologiyalarni investitsiyalash, jamoat transportining nisbatan toza va arzon turlarini qo'llash, innovatsiyalarni joriy qilishni rag'batlantirish maqsadida sanoatni qo'llab-quvvatlash, energiya sektorini dekorbanizatsiyalash, binolarning energiya samaradorligini oshirish kabi tadbirlar amalga oshirish belgilangan. Yevropada avtomobildan chiqayotgan zararli gazlar bo'yicha Yevro-6 standarti qabul qilingan bo'lib, 2025-yildan Yevropa avtomobil sanoatida Yevro-7 standartini joriy qilish rejalashtirilgan. Yevro-7 standartiga asosan ichki yonuv dvigateliga ega avtomobillarni ishlab chiqarishga taqiq qo'yiladi. Yashil iqtisodiyotni joriy qilish va uni iqtisodiyotning turli tarmoqlarida samarali rivojlantirish sohasida Xitoy ancha natijalarga erishgan. Iqtisodiyot tarmoqlarining tez sur'atlarda o'sishi, aholining zichligi yuqoriligi, tabiiy





resurslarning cheklanganligi, qator ekologik muammolarning yuzaga kelganligi Xitoy iqtisodiyotini yashil iqtisodiyotga o'tishini talab qiladi. Xitoyning yashil iqtisodiyotga o'tishda dastlabki urg'uni qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni oshirish, mamlakat energiya balansida muqobil energiya ulushini oshirish, aholini toza ichimlik suvi va toza atmosfera havosi hamda xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, ekologik madaniyatni shakllantirish yo'nalishlarida olib borishga yo'naltirdi. 2020-yilda 15 foiz elektr energiya qayta tiklanuvchi manballardan olingan. 2011-2015-yillarda 2 mingdan ortiq ekologik zararli korxonalar majburiy ravishda tugatildi. Xitoy energiyatejamkor va qayta tiklanuvchi energetikaga AQSh va Yel davlatlariga nisbatan bir necha barobar ortiq miqdordagi davlat investitsiyalarini joriy qilib kelmoqda. Buning oqibatida Xitoy kompaniyalari 2020-yil holatida jahonda ishlab chiqarilayotgan quyosh batareyalarining 50 foizga yaqinini va shamol dvi-gatellarining 25 foizini eksport qilmoqda. Hozirgi davrda nanotexnologiyalarga katta e'tibor qaratilgan. 2022-yil boshda mamlakatda elektromobillar ishlab chiqarish 45 foizga o'sdi va hozirda Xitoy elektromobillar ishlab chiqarishda jahon yetakchisiga aylanib ulgurdi, jahon bozorining 60 foizidan ortiq elektromobillari ushbu mamlakatda ishlab chiqariladi. Xitoy 2035-yilgacha avtomobil parkini 100 foizga yashillashtirishni rejalashtirgan. O'zbekiston yashil iqtisodiyotga o'tish uchun katta imkoniyatlarga ega. Bunga hududning tabiiy-ekologik sharoiti va resurslari, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish ko'rsatkichlari, mavjud moliyaviy-iqtisodiy resurslarni ko'rsatish mumkin. Tabiiy-iqlimiy sharoit respublikada muqobil energiya manbalarining ulkan zaxirasi mavjud-ligini ko'rsatadi. Quyosh energiyasining yuqoriligi, sanoat rivojlangan va aholi manzilgohlari atrofida keng maydonlarning mavjudligi quyosh energiyasidan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi. Shuningdek, tog' oldi hududlari va voha hamda cho'l hududlaridagi bufer zonalarda doimiy shamollarning mavjudligi shamol energiyasi imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

1-jadval

Yashil iqtisodiyot sharoitida hududiy boshqaruvning xorijiy tajribasi va O'zbekiston bilan qiyosiy tahlili

Mamlakat	Yashil rivojlanish strategiyasi	Hududiy boshqaruv modeli	Asosiy moliyalashtirish manbai	O'zbekiston uchun ahamiyati
Yevropa Ittifoqi	European Green Deal	Markazlashmagan boshqaruv	Green Deal, Green Bond, EU fondlari	Yashil byudjet va hududiy ekologik dasturlar
Janubiy Koreya	Green New Deal	Raqamli va aqlli hududiy boshqaruv	Davlat investitsiyasi va xususiy sektor	Smart City va raqamli boshqaruv
Yaponiya	Decarbonization Strategy	Mahalliy ekologik boshqaruv	Yashil texnologiyalar va innovatsiyalar	Energiya samaradorligi va mahalliy tashabbuslar
Xitoy	Ecological Civilization	Hududiy ekologik rejalashtirish	Davlat investitsiyalari va yashil kreditlar	Yashil sanoat zonlari
O'zbekiston	Yashil iqtisodiyot strategiyasi	Transformatsiya bosqichida	Davlat budjeti va xalqaro moliya institutlari	Xorijiy tajribani moslashtirish zarur

Manba: OECD, UNEP, UNECE va Jahon banki hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.





Yashil iqtisodiyot sharoitida hududiy boshqaruv samaradorligi davlatning institutsional salohiyati, ekologik siyosati, yashil investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari hamda mahalliy boshqaruv organlarining vakolatlariga bevosita bog'liq. Jahon amaliyotida yashil iqtisodiyot tamoyillarini hududiy boshqaruv tizimiga muvaffaqiyatli integratsiya qilgan davlatlar qatoriga Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Janubiy Koreya, Yaponiya va Xitoy kiradi. Mazkur mamlakatlarda hududlarni rivojlantirish strategiyasi ekologik barqarorlik, resurslardan samarali foydalanish va "yashil" innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash asosida amalga oshirilmoqda (1-jadval).

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha dastlabki jarayonlar boshlangan, bu borada huquqiy asos-lar shakllantirilib borilmoqda, qator farmon va qarorlar rasmiylashtirilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi tasdiqlash" to'g'risidagi, 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari shular jumlasidan. Ushbu huquqiy-me'yoriy hujjatlarga asosan 2030-yilgacha quyidagi strategik maqsadlarga erishish mo'ljallangan.

- issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi dara-jadan 35 foizga qisqartirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko'prog'iga yetkazish;
- sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;
- yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug'orish texnologiyasini joriy etish;
- yiliga 200 million ko'chat ekish va ko'chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali sha-harlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish;
- respublika o'rmon fondi zaxiralari ko'rsatkichini 90 million kub metrdan ortiqroqqa yetkazish;
- hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish;
- 2023-yil 1-iyundan boshlab mahsulotlarni ishlab chiqarishda ekologiya va atrof-muhitga ta'sirni chek-lash bo'yicha qo'yilayotgan talablar asosida "yashil sertifikatlar" tizimi joriy etish;
- issiqxona gazlarining chiqarilishini davlat tomonidan hisobga olish va ularning davlat kadastrini yuritish;
- uglerod birliklarining reyestrini shakllantirish va yuritish;





- iqtisodiyot tarmoqlari kesimida issiqxona gazlari chiqarilishini qisqartirishning maqsadli ko'rsatkichlarini belgilash;
- issiqxona gazlarining chiqarilishini qisqartirish bo'yicha faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
- 2024-yil 1-yanvardan boshlab barcha issiqxona gazlarini qamrab oluvchi iqlim o'zgarishi sohasida monitoring, hisobot berish va tekshirishning zamonaviy tizimi (MRV) yo'lga qo'yish;
- tarmoq va hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish doirasida tarmoqlar va hududlarning iqlim o'zgarishiga nisbatan sezuvchanligi xususiyatlaridan kelib chiqib, aholi va iqtisodiyot tarmoqlariga iqlim o'zgarishi ta'sirini kamaytirish hamda unga moslashish chora-tadbirlari va investitsiya loyihalari qamrab olish;
- 2023-yil 1-iyulga qadar "ifloslantiruvchi to'laydi" tamoyilini to'liq joriy etish;
- "yashil" iqtisodiyot sohasidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib borish;
- iqtisodiyot tarmoqlarida "yashil" texnologiyalar, xususan, resurs tejovchi, chiqindisiz ishlab chiqarish, chiqindilarni qayta ishlash imkoniyatini beruvchi texnologiyalarni va xavfsiz kimyoviy moddalarni qo'llashga o'tish hamda qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish;
- istiqbolli innovatsion ishlanmalar va "startap" loyihalarni amalga oshirish hamda ularni tijoratlashtirish va texnologiyalar transferini qo'llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar mo'ljallangan.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yashil iqtisodiyot sharoitida hududiy boshqaruv samaradorligini oshirishda institutsional islohotlar, yashil investitsiyalarni rag'batlantirish, raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish hamda ekologik barqarorlik tamoyillarini hududiy rivojlanish strategiyalariga integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya, Yaponiya va Xitoy tajribasi ushbu yo'nalishda samarali boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish imkonini beradi. Tahlillar asosida O'zbekistonda hududiy boshqaruv tizimida yashil byudjetlashtirish, ekologik monitoring, hududiy rivojlanish dasturlarini takomillashtirish va xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish zarurligi aniqlandi. Mazkur takliflarni amaliyotga joriy etish hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash hamda mamlakatning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. OECD. Green Economy Transition in Eastern Europe, the Caucasus and Central Asia: Progress and Ways Forward. – Paris: OECD Publishing, 2022. – 108 p.





2. UNEP. About Green Economy. – Nairobi: United Nations Environment Programme, 2025.
3. OECD. Progress on Mainstreaming Green Economy in National Strategies and Plans in EECCA. – Paris: OECD Publishing, 2022.
4. OECD. OECD Public Governance Reviews: Uzbekistan – Towards a More Modern, Effective and Strategic Public Administration. – Paris: OECD Publishing, 2024.
5. OECD. Financing Uzbekistan's Green Transition: Capital Market Development and Opportunities for Green Bond Issuance. – Paris: OECD Publishing, 2023.
6. UNECE. Fourth Environmental Performance Review of Uzbekistan. – Geneva: United Nations Economic Commission for Europe, 2026.
7. OECD. Greening Countries, Regions and Cities. – Paris: OECD, 2025.
8. Utegenova S., Khaliqnazarova G. State, Dynamics and Problems of Development of the "Green" Economy in the Republic of Uzbekistan // Modern Science and Research. – 2024. – Vol. 3. – Issue 9.
9. OECD. Progress on the Green Economy Transition in Eastern Europe, the Caucasus and Central Asia. – Paris: OECD Publishing, 2022.
10. Turayev A., Ilxomova R. The Transition to a Green Economy: International Experience and Uzbekistan Practice // Synapses: Insights Across the Disciplines. – 2026.



2026-yil, iyul. №7-son.

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**